PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

DARBOZLIK SAN'ATI VA UNI YOSHLAR O'RTASIDA OMMALASHTIRISH YO'LLARI

Ismoilova Gulrux Ulug'bekovna
Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20398271

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi namunalaridan bo'lgan darbozlik san'ati haqida fikr – mulohazalar keltirilgan. Shuningdek tabora unutilayotgan bu san'at turini kelajak avlodga yetkazish bo'yicha tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

Annotation: This article examines the art of tightrope walking as one of the significant manifestations of the rich spiritual and cultural heritage of the Uzbek people. Furthermore, a system of practical recommendations has been developed aimed at preserving this gradually disappearing art form and ensuring its transmission to future generations.

Аннотация: В статье рассматривается искусство канатоходства как одно из значимых проявлений богатого духовно-культурного наследия узбекского народа. Кроме того, разработана система практических рекомендаций, направленных на сохранение данного постепенно утрачиваемого вида искусства и его передачу будущим поколениям.

Mustaqil davlatimizni ertangi kuni, uning gullab – yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi – farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi[1].

O'zbek milliy o'yinlari, harakatli o'yinlarning milliy turlari o'zbek millatini qadimiy an'analari, madaniyati va qadriyatini chuqur ildizlaridan kelib chiqib yoshlarimizni etnik guruhini harakat olami tasnifini aks ettiradi. Sport va harakatli o'yinlarni milliy turlari asrlar davomida xalqimizni mehnat faoliyati belgilarida saqlanib qolgan[2]. Darbozlik san'ati ham bundan mustasno emas. Darbozlik san'ati — bu inson jasorati, muvozanati va mahoratini namoyon etuvchi qadimiy tomosha san'atidir. O'zbek xalqi madaniyatida darbozlik alohida o'rin egallab, asrlar davomida xalq bayramlari, sayllar va tantanalarning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Darbozlar baland arqon ustida turli murakkab harakatlarni bajarib, tomoshabinlarga hayrat va zavq ulashgan. Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda ham bu san'at turi keng ko'lamda ommalashib kelmoqda.

Darbozlik san'ati Markaziy Osiyoda juda qadimdan mavjud bo'lib, u nafaqat jismoniy chaqqonlik, balki ruhiy bardoshlik va ichki ishonchni ham talab etadi. O'tmishda darbozlar xalq orasida katta hurmatga ega bo'lgan, ularning chiqishlari esa jasorat va qo'rqmaslik ramzi sifatida qabul qilingan. Darbozlik san'ati yoshlarni mardlikka, sabr-toqatga va o'z ustida ishlashga undagan. Bugungi kunda esa texnologiyalar rivoji va zamonaviy ko'ngilochar o'yin turlari ko'paygani sababli darbozlik san'ati avvalgidek keng ommalashmay qo'ydi. Shunga qaramay, bu noyob milliy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

1997 yildan buyon Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan muntazam o'tkazib kelinayotgan milliy dorbozlik jamoalari ishtirokidagi "Maydon tomoshalari san'ati" respublika festivali o'zbek xalq tomosha san'ati va milliy o'yinlarini tiklash, dorbozlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda keng targ'ib etish, shuningdek, yoshlarning boy ma'naviy merosimiz, xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishi va hurmatini oshirishga xizmat qilmoqda.

[1] Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya, 3- bet. Toshkent-2011 y
[2] Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya, 54- bet. Toshkent-2011 y

Joriy yilda Markaz tomonidan ota-bobolarimizning mardu-maydonlik, jasorat, epchillik kabi xislatlarini o‘zida ifoda etuvchi, ko‘p asrlik tarix va boy an’analarga ega “Dor va dor osti tomoshalari san’ati” YuNYeSKOning Insoniyat Nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga tavsiya etildi. Bu ham bejiz emas. Misol tariqasida Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni hisoblaydigan bo‘lsak, ularda dorbozlik san’ati bo‘yicha bir nechta guruhlar bo‘lsa, bizning mamlakatda yetmishga yaqin dorbozlik jamoalari va tsirk san’ati bilan shug‘ullanadigan guruhlarimiz mavjud. Mazkur jamoalarning repertuarlarini o‘ylash, milliy an’anaviy tarzdagi sulolaviy dorbozlik san’atini yanada rivojlantirish, yoshlarni qiziqtirish maqsadida har ikki yilda “Maydon tomoshalari san’ati” respublika festivali o‘tkazilib kelinadi.

Bu galgi milliy dorbozlik san’atini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham ko‘p ming yillik tarixga ega milliy dorbozlik va xalq tomosha san’atiga alohida e’tibor qaratish, respublikamizda faoliyat yuritayotgan dorbozlik jamoalari faoliyatini tahlil qilish, ularning texnik xavfsizligi, ijro mahorati, sahna madaniyatini yuksaltirish, tomosha dasturlarining g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirish va milliy vatanparvarlik ruhida shakllantirish borasida amaliy-uslubiy yordam berish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. O‘zbekiston hududida qadimdan turli dor va dor osti o‘yinlari mavjud bo‘lgan va keng tarqalgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Farg‘ona vodiysining Asaka va Quva shaharlari dorbozlik san’atining o‘ziga xos markazlari hisoblangan. Bugungi kunda O‘zbekistonda 40 dan ortiq dorbozlik guruhlari mavjud bo‘lib, tajribali dorbozlar boshchiligidagi “Vodil chinori”, “Madamin dorboz”, “Andijon samosi”, “Qo‘qon minori”, “Kosonsoy dorbozlari”, “Chust dorbozlari” guruhlari samarali faoliyat yuritib kelmoqdalar[3].

Darbozlik san’atini saqlab qolish va keng targ‘ib etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- milliy va hududiy madaniy tadbirlar, festival va bayramlarda darbozlik chiqishlarini muntazam tashkil etish;
- bolalar va yoshlar uchun maxsus to‘garaklar, studiyalar hamda o‘quv markazlarini tashkil etish;
- ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye va internet platformalari orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;
- zamonaviy san’at turlari bilan uyg‘unlashtirilgan yangi sahna ko‘rinishlarini yaratish;
- turizm sohasida milliy tomoshalar qatorida darbozlik san’atidan keng foydalanish.

Xulosa

Darbozlik san’ati — bu shunchaki tomosha emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, jasorati va ma’naviy boyligining ifodasidir. Uni asrab-avaylash va ommalashtirish orqali biz milliy madaniyatimizni boyitamiz, yosh avlodga bebaho meros qoldiramiz. Zamonaviy yondashuv va an’anaviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish esa darbozlik san’atining kelajagini yanada porloq qiladi. Bu san’at xalqning madaniy merosi sifatida tarbiyaviy ahamiyatga ega. U yosh avlodni jasoratli, sabrli va qat’iyatli bo‘lishga undaydi. Shuningdek, darbozlik tomoshalari orqali estetik did, jamoaviylik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari shakllanadi. Shu boisdan ham mazkur san’at turini milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim omil sifatida baholash mumkin.

[3]Meliboyev A. “Milliy dorbozlik san’ati istiqboli “ ilmiy maqola Hurriyat gazetasi 2016 y.

ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya, Toshkent-2011 y
2. Meliboyev A. “Milliy dorbozlik san’ati istiqboli “ ilmiy maqola Hurriyat gazetasi 2016 y.
3. O‘zbekiston xalq san’ati tarixi. — Toshkent.
4. Milliy tomosha san’ati va uning turlari.
5. Madaniyat va san’at asoslari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.